

Toshkent shahar adliya boshqarmasi tomonidan 2024-yilda
amalga oshirilgan ishlar haqida MA'LUMOT.

Boshqarma va uning tizimidagi adliya bo'limlariga **12.135 ta** murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shularning **8.807 tasi yoki 72,5% qanoatlantirilgan.**

362 marotaba o'rganishlar o'tkazilib **88 mingdan ortiq (88.841 ta)** qonunbuzilish holatlari aniqlangan.

Aniqlangan qonun buzilishlarni bartaraf qilish bo'yicha **919 ta** taqdimnoma, **361 ta da'vo arizalar** kiritilgan, **777 nafar** shaxs ma'muriy va **197 nafar** shaxs **intizomiy** javobgarlikka tortilgan.

Taqdimnomalar natijasiga ko'ra, **212,1 mlrd** so'm pul mablag'lari, **da'vo arizalar** natijasiga ko'ra, **61,3 mlrd** so'm pul mablag'lari egalariga qaytarilgan.

5514 nafar jismoniy shaxslarning va **1782** nafar yuridik shaxslarning **fundamental huquqlari ta'minlangan.**

23704 marotaba targ'ibot tadbirlari amalga oshirilgan bo'lib, shundan **2017 tasi** OAVda, **8749 tasi** Ijtimoiy tarmoqlarda va **17.780 tasi** og'zaki targ'ibot tadbirlarini tashkil etadi.

Vakant bo'lgan **43 ta** lavozimlarga tanlov e'lon qilinib, **2969 nafar** nomzodlar o'rtasida **tanlov o'tkazildi** va **62** nafar talabgorlar bilan **mehnat shartnomasi tuzildi**. Natijada vakant o'rinlar to'ldirilib, 2024-yil yakuniga ko'ra **1,7 %** ni (9 ta vakant) tashkil etmoqda.

DXM sohasida 2024-yil davomida jami 2 152 288 ta (2023-yilda 1 861 810 ta) davlat xizmatlari ko'rsatilgan (o'tgan yilga nisbatan 13,5 foizga ko'p).

Shundan, **1 035 954 ta** (2023-yilda 1 069 104 ta) holatda **DXM** orqali (o'tgan yilga nisbatan 3,1 foizga kam);

1 116 334 ta (2023-yilda 792 706 ta) **onlayn** tarzda (o'tgan yilga nisbatan 28,9 foizga ko'p) ko'rsatilgan.

Jumladan:

Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tadbirkorlik sub'ektlari soni:

Yuridik shaxslar – **17 419** ta

Jismoniy shaxslar – **22 039** ta

Qayta davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tadbirkorlik sub'ektlari soni:

Yuridik shaxslar – **28 370** ta

Jismoniy shaxslar – **9 490** ta

Tugatilganlar tadbirkorlik sub'ektlari soni:

Yuridik shaxslar – **2 226** ta

Jismoniy shaxslar – **1 811** ta

Boshqa xizmatlar - 2 070 933 ta

Bugungi kunda **Davlat xizmatlari markazlari** orqali **409** ta davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali esa **719** ta xizmat ko'rsatilmoqda.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida 2024-yil davomida joyiga chiqqan holda **53 ta** tashkilotda **15 ta** o'rganishlar hamda dxa.gov.uz tizimi orqali jami **146 ta** monitoringlar o'tkazilgan.

O'rganishlar natijasida, vakolatli idora va tashkilotlar tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatishda **jami 62 742 ta** qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yilganligi aniqlangan.

Qonunbuzilish holatlari, vakolatli idora va tashkilotlar kesimida tahlil qilinganda, kommunal xizmat ko'rsatuvchi idoralar **36 310** ta, qurilish va arxitektura idoralari **7 537** ta, Davlat kadastrlari idoralari **6 817** ta, "Toshkent shahar gaz ta'minoti" AJ **3 757** ta, ta'lim muassasalari **2 192** ta, "O'zbekenergo" AJ **1 437** ta va boshqa tashkilotlar tomonidan **4 690** tani tashkil etgan.

Mazkur qonun buzilishiga yo'l qo'ygan vakolatli idora va tashkilotlarning **418 nafar** mansabdor shaxslari va xizmatchilariga O'zbekiston Respublikasi MJtKning 215⁵-moddasiga asosan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, tegishli tartibda ma'muriy jarima jazosi qo'llash to'g'risida qarorlar qabul qilingan.

Shuningdek, qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida

vakolatli idoralarga **jami 69 ta** taqdimnomalar kiritilib, natijasiga ko'ra, **40 nafar** xodimga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilib, **4 nafar** xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan hamda qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida vakolatli idoralarga **303 ta** ogohnomalar kiritilgan.

Toshkent shahridagi **270** ta xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar mavjud bo'lib, ular faoliyatini nazorat qilish ham bevosita adliya boshqarmasining vazifalaridan biridir.

Shunga ko'ra, notariuslar faoliyatida ham tizimli nazorat tadbirlari o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, 2024-yilda jami **29** ta rejali tekshirish, **240** ta reyd, **51** ta sirli mijoz tadbirlari o'tkazilib natijasiga asosan **88** ta xizmat tekshiruvni tayinlangan va aniqlangan kamchiliklarga asosan **86** ta notariuslarning litsenziyalari turli muddatlarga to'xtalidi.

O'tgan 2024-yil davomida Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan jami **413 033 ta** buyruq va **176 703 ta** shartnoma loyihalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, xulosa berilgan.

Shundan, **392 127 ta** buyruq, **165 812 ta** shartnoma loyihalariga **ijobiy**, **3 186 ta** buyruq, **1 135 ta** shartnoma loyihalariga **salbiy** xulosalar berilgan.

Shuningdek, **17 720 ta** buyruq va **9 756 ta** shartnoma loyihalari kamchiliklar bilan taqdim qilinganligi sababli **rad qilingan**.